

Abdulla Avloniy Asarlarida Odob-Axloq Masalasi

Qalandar Rustamov Ravshan o'g'li¹

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdulla Avloniyning pedagog olim sifatida ta`lim-tarbiyaga oid darsliklari, odob-axloq masalarini aks ettirgan asarlari bilan o`z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotida, pedagogik rivojida alohida o`rin egallashi haqida bayon etilgan.

Kalit so`zlar: odob-axloq, ta`lim-tarbiya, pedagogika, “usuli jadid”, sharq folklori, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Birinchi muallim”, “Ikkinci muallim”, “Maktab gulistoni”, “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi Islom”.

Vatan ozodligi va millat taraqqiyoti uchun fidoiy jadidlar yetakchilaridan biri, ma`rifatparvar Abdulla Avloniy ta`lim va tarbiyaga, odob-axloqqa bo`lgan ehtiyojni chuqur anglagan holda Turkiston o`lkasida ilk “usuli jadid” ya`ni, yangi usul maktablarini ochgan, o`zi ham shu maktablarda oddiy xalq bolalarini savodini chiqarish, ularni Vatan uchun fidoiy, ilmli, axloqli, ziyoli insonlar etib tarbiyalash, barkamol insonlar etib voyaga yetkazish uchun faoliyat olib borgan. Bu maktablarda o`quvchilar olti oyda savod chiqarib, bilimlarini aniqlash maqsadida imtihonlar o`tkazilgan.

Yoshligidan she`rlar mashq qilib, gazeta va ro`znomalarda maqolalar chop ettirgan Abdulla Avloniy keyinchalik maktablar uchun darslik va qo`llanmalar ham yaratgan. Sharq folkloridagi hikoyalarni maktab bolalariga moslashtirib, ularning odob-axloqini yuksaltirishga qaratilgan asarlar yozgan. Ushbu asar va darsliklarda boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun xalq pedagogikasiga asoslangan hikoyalar, she`rlar, rivoyatlar va naqllar o`rin olgan.

Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi darsligi “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida “axloq” so`ziga shunday ta`rif berilgan: “Axloq – insonni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshilagini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladurgan kitobni axloq deydilar”.

Yangi usul maktablari uchun yaratgan darsliklaridan “Birinchi muallim” 1909-yilda yozilgan bo`lib, boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun mo`ljallangan alifbo risolasidir. Uning mantiqiy davomi sifatida 1912-yilda “Ikkinci muallim” kitobi boshlang`ich sinf o`quvchilari o`qishi uchun oson va soda tilda yozilgan axloqiy hikoyalar va adabiy she`rlardan iborat. Yuqori sinf o`quvchilari uchun 1913-yilda yozilgan “Turkiy guliston yoxud axloq” asari yaxshilikka chorlovchi, yomonlikdan qaytaruvchi axloq kitobi bo`lib, unda olimning odob-axloqqa oid mulohazalari bayon etilgan. “Maktab gulistoni” asari 1916-yilda yozilgan bo`lib, adabiy, axloqiy hikoyalar va she`rlar to`plamidir.

Jadidlar yangi usul maktablarida nafaqat dunyoviy bilimlar, balki eski aqidalarga qaram bo`lmagan diniy ilmlarni ham o`qitishgan. Jumladan, “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi Islom” asari 3-4 – sinflar uchun mo`ljallangan bo`lib, payg`ambarlar tarixi yoritilgan, yoshlarni haq yo`liga chorlaydigan va e`tiqodini shakllantirishga xizmat qiladigan darslikdir.

Abdulla Avloniy “Tarbiya – Pedagogiya, ya`ni, bola tarbiyasi fani demakdir. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o`rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o`stirmakdur”, - deya ta`riflab, tarbiya va odob-axloqning asosiy mazmunini ifodalagan.

O`zbek ma`rifatchiligidagi axloqiy, ta`limiy, tarbiyaviy asarlar, darsliklar yaratib, milliy uyg`onish davri adabiyotining rivojiga ulkan hissa qo`shgan adib

¹ Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti



Abdulla Avloniy odob-axloq masalasida quyidagicha mulohaza yuritgan: “Xulqimizning yaxshi bo`lishining asosiy panjası tarbiyatdur. Axloqimizning binosini go`zal va chiroyli bo`lishiga tarbiyaning zo`r ta`siri bordur, ba`zilar tarbiyaning axloqqa ta`siri yo`q, insonlar asl yaratilishida qanday bo`lsalar shunday o`sarlar, tabiat o`zgarmas demishlar. Lekin bu so`z to`g`ri emasdur. Chunki tarbiyaning axloqqa, albatta, ta`siri bo`ladur”.

Abdulla Avloniy o`z qarashlari va mulohazalarini dalillash va misollar keltirish uchun Qur`on oyatlari va hadislardan, hamda Arastu, Suqrot, Ibn Sino, Sa`diy Sheroyi, Mirzo Bedil va bir qancha mutafakkirlarning fikrlari va asarlaridan foydalangan. Har bir axloqiy kategoriya avval o`z munosabatini bildirib, keyin shu fikrning mazmunini ifodalovchi maqol, hikmatli so`z yoki bayt keltirgan.

Abdulla Avloniy qarashlariga ko`ra, axloqiy tarbiya xususiy ish emas. Bu tarbiya – ijtimoiy jarayon. Har bir insonning tarbiyasiga butun jamiyat mas`ul bo`lishi lozim. Xalqlar, millatlarning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo`lishi ko`p jihatdan o`sib kelayotgan yoshlarning tarbiyasiga bog`liq bo`ladi. Bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar katta ahamiyatga ega.

Ma`rifatparvar olim Abdulla Avloniy millat savodxon, ziyoli bo`lishi uchun maktablar ochdi, bolalarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga harakat qildi, she`rlar, asarlar, darslik va majmualar yozdi, yetuk pedagog va metodist olim sifatida qo`llanmalar yaratdi, publisistik faoliyat olib bordi, ta`lim, tarbiya va axloqni ulug`lab, jaholat va ilmsizlikni qoraladi, ham diniy, ham dunyoviy bilimlar egallashga chorladi. Abdulla Avloniyning fidokorona mehnatlari natijasida ochilgan maktablar o`zbek xalqining mustaqillikka intilishi, chor zulmidan xalos bo`lib, millat farzandlarini ilmli, odob-axloqli, barkamol bo`lib yetishishida, u yozgan asarlar, qo`llanmalar, darsliklar va kitoblar bo`lg`usi pedagoglarni o`z sohasining mutaxassislari etib tayyorlashda mihim ahamiyat kasb etadi.

Mutafakkirning barcha qarashlari, olib borgan fikr-mulohazalari ta`lim-tarbiya va milliy pedagogika tarixi rivojiga beqiyos hissa qo`shdi. Adib tomonidan ta`lim-tarbiya, odob-axloq borasida ilgari surilgan ulug`vor g`oyalar bugungi kunda ham o`z dolzarbligini saqlagan holda zamонави о`збек педагогикаси тараққиёти учун муносиб xizmat qilib kelmoqda.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. A. Boboxonov, M. Maxsumov, “A. Avloniy pedagogik faoliyati” 1999 yil. 31-36-bet.
2. O. Suvonov, S. Astanova. “Pedagogik mahorat”. -Guliston, 2010.
3. R. Mavlonova, N. Raxmonqulova, N. Voxidova, K. Matnazarova. “Pedagogika” -Toshkent,
4. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANOSTANDART, 2017.
5. Ro`ziyeva D.I., Tolipov O‘. Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.
6. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.
7. Mutualipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyoziy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2015.
8. Юзликаева Э., Мадьярова С., Янбарисова Э., Морхова И. Теория и практика общей педагогики. Учебник. – Т.: ТГПУ, 2014

